

ZAMONAVIY JAMIYATDA IJTIMOY TOLERANTLIK TUSHUNCHASINING TALQINI

SH.A. Nurmatova

TAFU Pedagogika fakulteti Psixologiya yo'nalishi 1-Bosqich talabasi

A. Mirsidikova

Ilmiy raxbari: TAFU, Psixologiya Kafedrası katta o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20697541>

Annotatsiya

Ushbu maqolada zamonaviy jamiyatda ijtimoiy tolerantlik tushunchasining talqini haqida. "Zamonaviy jamiyat" birgina shu so'z aslida jamiyatdagi har qanday muammoni hal etishi kerakday go'yo. Zamon har lahzada rivojlanib, yuqorilab, bag'rikenglik, insoniylik tamoyillarini chuqur o'rganib borishi tabiiyday hudda. Biroq aslida ham shundaymi? Jamiyat axloqiy, tarbiyaviy yozilmagan ko'dekslarni qanchalik o'rganganu? Qanchalik unga bo'ysunmoqda? Nega endi zamonaviy jamiyat shuncha bilim, tajriba va resurslarga ega bo'la turib, hamon elementar madaniyat qoidalarini buzmoqda?

Har birimiz texnika asrida yashamoqdamiz. Hozir inson istagan hayot tortiqlaridan foydalana oladi. Faqat nimagadir hamon insonlar o'rtasida irqchilik, din, til, etnografik kelib chiqish kabi insonga bog'liq bo'lmagan omillar yuzasidan turli o'tkirlikda nizolar bor. Tolerantlik-bu so'z qadimgi davrlardan buyon insoniyatni tinchlikka, bag'rikenglikka chorlashga harakat qiladi. Bu maqola ijtimoiy tolerantlik rivojida zamonaviy jamiyatda nima xalaqit berayotganini aniqlashga intiladi.

Kalit so'zlar: Zamonaviy jamiyat, tolerantlik, bag'rikenglik, insoniylik, xulq-atvor, diskriminatsiya, stereotip.

Kirish

Tolerantlik aslida har bir shaxs hayotiga tarbiya bilan kirib borib, jamiyat mentaliteti orqali tasdiqlanishi darkor. Oddiy huquq va burj, qonun, jazo so'zlari bilan bir qatorda bola ongiga singdirilishi lozim. Bu tushuncha ko'plab faylasuf va olimlar tomonidan o'raganilgan. Ular o'z navbatida bu tushuncha ravnaqi uchun ko'plab qarashlarini, meros qilib qoldirib ketishgan. 1995-yilda qabul qilingan "Declaration of Principles on Toleranceda" tolerantlik inson huquqlarini hurmat qilish, madaniy xilma-xillikni tan olish va tinchlikni ta'minlash vositasi sifatida talqin etilgan

Mavzuning dolzarbligi

Aslida yer yuzidagi ko'plab global nizolar insonlarda aynan ijtimoiy tolerantlik yetishmasligi oqibatida kelib chiqadi. Tanganing narigi tarafi esa o'ziga nisbatan adolatli munosabatni ko'rmagan inson ertami kechmi, baribir izdan chiqadi. Tolerantsizlik bir insonni o'z orzularidan voz kechishga undasa, boshqa bir insonni yovuzlik yo'liga o'tishga turtki beradi. Charles Taylor fikricha, tolerantlikni rivojlantiradigan asosiy omil — insonlarning bir-birining madaniyati, tili, qadriyatlar va o'ziga xosligini tan olishi va hurmat qilishidir. O'zaro hurmat va muloqot odamlar o'rtasidagi ishonchni oshiradi.

Asosiy qism

Talcott Parsons tolerantlikni jamiyatdagi tinchlik va barqarorlikni saqlashga yordam beruvchi muhim omil deb hisoblagan. Uning fikricha, bag'rikenglik, tolerantlikni oshiradigan asosiy omillar:

Ta'lim va tarbiya orqali boshqalarga hurmat ruhini shakllantirish.

Jamiyat a'zolarining o'z huquq va majburiyatlarini anglashi. Ijtimoiy institutlar oila, maktab, davlat tomonidan o'zaro hurmat va hamjihatlikni qo'llab-quvvatlash.

Peter Berger zamonaviy jamiyatda turli din, madaniyat va dunyoqarash vakillari birgalikda yashashini tabiiy holat deb hisoblagan. ga ko'ra, tolerantlik turli madaniyat va din vakillari o'rtasidagi muloqot, o'zaro hurmat va xilma-xillikni tan olish orqali rivojlanadi. Bu esa jamiyatda tinchlik va hamjihatlikni mustahkamlaydi.

Gordon Allport – ijtimoiy psixologiya sohasida stereotiplar, kamsitish (diskriminatsiya) va millatlararo munosabatlarni o'rgangan olimlardan biridir. Uning mashhur asari: *The Nature of Prejudice* (1954). Allportning fikricha, insonlarda boshqa guruhlariga nisbatan salbiy munosabatlar ko'pincha stereotip va noto'g'ri tasavvurlar natijasida shakllanadi.

John Rawls – *A Theory of Justice* (1971) asari muallifi. Tolerantlikni adolatli jamiyatning muhim sharti deb hisoblaydi. Uning fikricha, barcha insonlar teng huquq va erkinliklarga ega bo'lishi kerak. Turli fikr, e'tiqod va qarashlarga hurmat bilan munosabatda bo'lish jamiyatdagi adolatni ta'minlaydi. Hech bir guruh yoki shaxs boshqalarning huquqlarini cheklamasligi kerak.

Biz esa shu o'rinda atrofimizdagi olamni diqqat bilan kuzatgan holda, bor resurslarimizni o'zimiz va yaqinlarimizni, madaniyatli tolerant inson qilib tarbiyalar ekanmiz. Shaxsiy irodamiz va na'munamiz orqali jamiyatga ijobiy ta'sir eta olamiz.

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy tolerantlik zamonaviy jamiyatning barqaror rivojlanishi, tinchligi va hamjihatligini ta'minlovchi eng muhim qadriyatlardan biridir. Tolerantlik insonlarning millati, dini, tili, madaniyati va dunyoqarashidagi farqlarni hurmat qilish hamda ularni tabiiy holat sifatida qabul qilishni anglatadi. Tolerantlik faqatgina huquqiy me'yor emas, balki insoniylik, madaniyat va yuksak axloqning muhim ko'rinishi hisoblanadi. Jamiyatda tolerantlik darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, unda tinchlik, adolat va o'zaro ishonch shunchalik mustahkam bo'ladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. UNESCO. Declaration of Principles on Tolerance. Paris, 1995.
2. Parsons T. The Social System. New York: Free Press, 1951.
3. Berger P. L. The Social Construction of Reality. New York: Anchor Books, 1966.
4. Allport G. W. The Nature of Prejudice. Reading, MA: Addison-Wesley, 1954.
5. O'smirlarda ijtimoiy tolerantlikning psixologik xususiyatlari. (2024). MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI JURNALI, 1(8). <https://doi.org/10.5281/zenodo.14616344>